

## INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI BOTANIK TERMINLARNING FRAZEOLOGIK BIRLIKLAR KOMPONENTI SIFATIDAGI DERIVATSION XUSUSIYATLARI

**Bahriddinova Yulduzxon Bahriddin qizi**

Doktorant, Termiz davlat universiteti

+998997092359

[yulduz.bahriddinqizi@gmail.com](mailto:yulduz.bahriddinqizi@gmail.com)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10929683>

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada ingliz va o'zbek tillaridagi tarkibida botanik terminlar, ya'ni o'simlik nomlari ishtirok etgan frazeologik birliklarining bir qancha derivatsion xususiyatlari muhokamaga tortilgan.

**Kalit so'zlar:** botanik terminlar, frazeologik birliklar, strukturaviy xususiyat, nominativlik.

Dunyo tilshunosligining izchillik bilan taraqqiy etish jarayonida bir oilaga yoki har xil oilalarga tegishli bo'lgan tillarni bir - biriga qiyoslab, chog'ishtirib o'rganish asosiy mavzulardan biridir. Biz ham ushbu maqolamizda ingliz va o'zbek tillaridagi frazeologik birliklar tarkibida komponent sifatida ishtirok etadigan botanik terminlar, ularning nominativ xususiyatlari va boshqa masalalarini ko'rib chiqishni maqsad qilganmiz. Dastlab ingliz va o'zbek tillarida botanik terminli frazeologik birliklarning tarkibiy va grammatik tashkil etilishi xususiyatlariga to'xtaladigan bo'lsak, A.V Kunin tomonidan taklif qilingan tasnifga muvofiq, butun botanik terminli frazeologik birliklarni bir nechta nominativlarga bo'lish mumkin, ya'ni predmetlarni, hodisalarni, harakatlarni, holatlarni, sifatlarni va boshqalarni belgilash funksiyasini bajarishini tushunishimiz mumkin. [1,48] Ikkala tildagi frazeologik birliklarning aksariyati nominativdir va shuning uchun ular ibora tuzilishiga ega.

Asosiy komponentning morfologik ifodasi va sintaktik funksiyasiga qarab, nominativ frazeologik birliklarni turli ma'nolarga ajratish mumkin:

**a bud of promise** - yosh, istiqbolli debyutant;

**wild oaks** - yoshlik ehtirolari, yoshlik gunohlari; [2,150]

Shu bilan birgalikda, ingliz va o'zbek tillarining botanik terminli frazeologik birliklarning grammatik-strukturaviy jihatdan tahlil qilishda ham har ikki tilda bir-biriga o'xshash bo'lgan yoki biri ikkinchisida uchramaydigan, qolaversa muqobil variantdagi strukturaviy modellarni tahlil qilishimiz mumkin. Shulardan quyidagi samarali strukturaviy modellar aniqlandi:

1.) "ot + ot" (N + N) - Shuni ta'kidlash kerakki, otning boshqa ot tomonidan umumiy holat ko'rinishidagi prepozitiv ta'rifi ingliz tilidagi grammatik tuzilishining xarakterli xususiyatlarini anglatadi, shuning uchun o'zbek tilida o'xshash birikmalar kamroq uchraydi.

Ushbu strukturaviy modelga misollar:

Ingliz tilida:

**bush cure** - uyda davolanish;

**a banana skin** - muammoning sababi;

**seed money** - boshlang'ich kapital;

O'zbek tilida ham shu modelga qurilgan bir nechta botanik terminli frazeologik birliklarni misol qilishimiz mumkin:

**qo'li gul** - har ishga mohir, o'z ishining ustasi;

**qovoq kalla** - axmoq; [3, 134]

2.) “sifat + ot” (Adj + N) strukturasi asosiga ham ingliz tilida bir qancha fitofrazeologizmlar qurilgan:

***political plums - siyosiy faoliyatdan olingan daromad;***

***blue beans - o'qlar;*** [4, 48]

***clean potato - 1) ozod qilingan mahkum; 2) qonunga bo'ysunuvchi shaxs;***

O'zbek tilida esa biz tahlilga olgan botanik terminli frazeologik birliklar orasida yuqoridagi strukturaga mos keluvchi birlik topmadik.

3.) “ot + predlog + ot” (N + Prep + N) – strukturasi asosiga qurilgan botanik terminli frazeologik birliklar:

Ingliz tilida:

***the flowers of speech - nutqning chiroyli burilishlari, notiqlik***

***a bite of the cherry - biror narsa qilish imkoniyati;***

Eng keng tarqalgan predloglar “of”, “in” va “for” hisoblanadi. O'zbek tilida predlog tushunchasi mavjud emas, natijada ushbu strukturaga ega bo'lgan frazeologik birlik ham tadqiqotimiz jarayonida uchramadi, shunga qaramay, o'zbek tilidagi kelishik qo'shimchalari ularning muqobil varianti hisoblanadi. [5, 28]

4.) “ot + bog'lovchi + ot” (N + Conj + N) - Muvofiqlashtiruvchi aloqaga ega frazeologik birliklarda ushbu tuzilma ajralib turadi. Bu frazeologik birliklar bog'lovchi-tarkibli bog'lanishga misol bo'ladi, masalan:

***apples and oranges – farq qiluvchi, butunlay boshqa narsa;***

***prunes and prisms - yoqimli gapirish usuli; olijanob va juda to'g'ri xatti-harakatlar;***

O'zbek tilida esa ushbu strukturaga ega bo'lgan frazeologik birlik ham tadqiqotimiz jarayonida uchramadi.

Qiyosiy bo'lmagan botanik terminli frazeologik birliklar orasida quyidagi mahsuldor tizimli modellarni ajratib ko'rsatish mumkin:

5.) “fe'l + ot” (V + N).

***eat the ginger - biror narsaning eng yaxshi qismini olish;***

***dangle a carrot - yo'ldan ozdirmoq*** [6, 87]

Tarixiy shakllanish va rivojlanish jihatidan ingliz va o'zbek tillari ikki oilaga mansub bo'lganligi tufayli, yuqoridagi struktura o'zbek tilida “ot + fe'l” (N + V) shaklida uchraydi:

***anjir bo'lmoq - jismonan qattiq ezilmoq, qiynalmoq, charchamoq;***

***gul tashlamoq - mog'orlamoq, qishda oynaning muzlashi;***

6) “fe'l + predlog + (sifat) + ot” (V + Prep + (Adj) + N) – Ushbu modelda asosan ingliz tilidagi botanik terminli frazeologik birliklar tahlil qilindi, chunki yuqorida ta'kidlaganimizdek, o'zbek tilida predlog tushunchasi asosida kelishik qo'shimchalarini nazarda tutishimiz mumkin hamda ushbu strukturaning teskari shakli, ya'ni (sifat) + ot+ k.q + fe'l strukturasi mavjud:

Ingliz tilida:

***hear on the grapevine - xabarni boshqa birovdan eshitgan odamdan eshitish;*** [6,59]

O'zbek tilida:

***mag'zini chaqmoq—tub mohiyatiga yetmoq***

7.) “fe'l + ravish + ot” (V + Adv + N) – ingliz tilidagi ayrim botanik terminli frazeologik birliklarning strukturasi va ular asosan holatni ifodalaydi, masalan:

***bush up a person - kimnidir qiyin ahvolga solib qo'yish;***

***go up a tree - 1) teskari fikrda bo'lmoq; 2) juda qiyin ahvolda bo'lish;***

O'zbek tilida:

**arpasini xom o'rmoq—biror kishiga yoqmaydigan xatti-harakat qilmoq;**

**tarvuzi qo'ltig'idan tushmoq -umidi puchga chiqib bo'sharmoq; [7, 67]**

8.) Ingliz tilidagi “fe'l + bog'lovchi + ot” (V(phr) + Conj + N) tuzilishiga ega bo'lgan botanik terminli frazeologik birliklar:

**stick like a bur – aybini yopish;**

**shake like a leaf - qo'rquv yoki hayajondan titramoq;**

O'zbek tilida tadqiqotga olingan botanik terminli frazeologik birliklar qatorida bunday strukturaga oid birlik kuzatilmadi.

9.) “fe'l + (sifatdosh) + ot” modeli bilan ifodalanuvchi frazeologik birliklarda ingliz tilidagi fitonim so'z asosiy komponent sifatida ishlatilishi mumkin:

**slip on a banana skin/peel – mashxur kishining xato ishga qo'l urib karerasidan ayrilishi;**

Ingliz tilida sifat ishtirok etgan botanik terminli frazeologik birliklar bir qanchani tashkil etadi va ular “as + sifat + as + ot” (as + Adj + as + N) yoki “as + ot” (as + N) birikmasi bilan tuzilmaviy modeli bilan ham tavsiflanadi Tahlil natijasida quyidagi frazeologik birliklar aniqlandi:

**as cool as a cucumber - tinch, bosiq;**

**as fresh as a rose - juda jozibali;**

O'zbek tilida esa “as...as...” birkmasining ma'nosini –day, -dek qo'shimchasi ifodalaydi va botanik terminli frazeologik birliklar tarkibida ishtirok etadi, lekin aynan shu strukturaga mos tushmaydi:

**ajriqqa ag'anaganday—notinch, bezovta holda azob chekib yotmoq;**

**olmadek qizarmoq - uyatdan yoki ayb ish qilgani uchun yuzi qizarishi;**

Nominativ botanik terminli frazeologik birliklarni tahlil qilishda bir qancha adverbial birlik aniqlandi va ular “predlog + ot” (Prep + N) tuzilishga ega:

**in a nutshell - qisqacha, qisqacha aytganda;**

**to the root - oxirigacha, yaxshilab;**

Ingliz tilida inkor olmoshi ishtirok etgan botanik terminli frazeologik birliklar ham mavjud, masalan:

**no herb will cure love - sevgi iztirobini davolab bo'lmaydi;**

**fine words butter no parsnips - quruq qoshiq og'iz yirtar;**

O'zbek tilida esa –ma (-mas) inkor yasovchi qo'shimcha ishtirok etgan botanik terminli frazeologik birliklar mavjud:

**olmadan bodom bo'lmas, tagi past odam bo'lmas;**

**o'n gulidan bir guli ochilmagan—yosh, navqiron odam;[8, 73]**

Ingliz va o'zbek tillaridagi botanik terminli frazeologik birliklarning strukturaviy va grammatik xususiyatlarini qiyosiy tahlil qilish natijalari asosida ular orasida nominativ frazeologik birliklar ustunlik qiladi degan xulosaga kelishimizga imkon beradi. Shu bilan birga, ingliz tilida bu sinf birliklari eng ko'p substantiv iboralar bilan ifodalanadi, bu o'rganilayotgan mavzuning o'ziga xosligi bilan bog'liq. Birliklar va umuman olganda, frazeologik tizimning, shu jumladan botanik terminli frazeologiyani tegishli tilning strukturaviy va tipologik xususiyatlarini aks ettirish qobiliyatidan dalolat beradi.

## References:

1. Mamatov A. E. O'zbek tilida frazeologizmlarning shakllanishi masalalari. – T. 2001. 3-son.
2. Collins cobuild dictionary of idioms- Helping learners with real English. Printed in Great Britain by Caledonian International Book Manufacturing Ltd, Glasgow, G64. Reprinted 1997
3. Rahmatullayev Sh. Izohli frazeologik lug'at. O'qituvchi. - Toshkent: 1979.
4. Ray J. "A Complete Collection Of English Proverbs." Forgotten Books, -London. 2013.
5. Khalibekova O. K. "Semantic Features of English and Uzbek Phraseological Units with the Component Phytonym". International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding. 2020.
6. Heba Abdelraheim Alkady. A Dictionary of English Idioms. assistant lecturer at qena faculty of arts Egypt, 2005.
7. O'zbek tilining izohli lug'ati. 1-TOM. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi", Davlat ilmiy nashriyoti, 2006.
8. O'zbek tilining izohli lug'ati 2-TOM. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi", Davlat ilmiy nashriyoti, 2006.



INNOVATIVE  
ACADEMY